

## HAQSEVAR VA XALQSEVAR SHOIR RAUF PARFI IJODIGA BIR NAZAR (HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI)

Zarifa Norqobilova Axatullayevna,

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti oqituvchisi

### **Аннотация**

В статье рассказывается о поэзии нашего поэта Рауфа Парфи, который написал стихотворение, не снимая надетую на него «пожарную рубаху». Также подчеркивается, что его стихи нелегко понять, как и его духовный мир и ситуации, и что поэт является беспристрастным и верным любителем поэзии, забывая о своей личной жизни.

**Annotatsiya:** Maqolada Rauf Parfi egnidagi “olov ko‘ylak”ni yechmay she’r yozib o’tgan shoirimizning she’riyati xususida so`z yuritiladi. Shuningdek, uning ruhiy dunyosi va holatlari kabi she’rlarini anglash ham oson emasligi, shoir she’riyatning xolis, shaxsiy hayotni unutar darajadagi sodiq muhibi ekanligi alohida ta`kidlanadi.

**Annotation:** The article talks about the poetry of our poet Rauf Parfi, who wrote a poem without taking off the "fire shirt" he was wearing. It is also emphasized that it is not easy to understand his poems, like his spiritual world and situations, and that the poet is an impartial and faithful lover of poetry, forgetting his personal life.

O’zbekiston xalq shoiri, Mahmud Qoshg’ariy mukofoti sohibi Rauf Parfi agar hayot bo’lganlarida 79 yoshni qarshi olardilar.Haqsevar va xalqsevar shoir Rauf Parfi zamonaviy she’riyat oshnosи. Modernizmda sermahsul ijod qilgan oddiygina kamtarin,kamsuqum haqiqatgo’y shoir Rauf Parfi milliy qadriyatlarimiz, milliy g’ururimiz kuychisi desam mubolag’a qilmagan bo’laman.Uning she’rlarini o’qir ekansiz, beixtiyor u bilan birga dengizning tubiga g’arq bo’lasiz. Qushlar bilan birgalikda balandroqqa parvoz qilasiz. She’rlarining ta’sirchanligi nafaqat o’zbek xalqining qalbidan joy olgan, balki boshqa xalqlarning ham e’tiboriga tushgan,e’tirofiga loyiq topilgan. Hattoki turk xalqining sevimli shoiriga aylanib ulgurgan.Jumladan uning she’rlari turk tiliga mahorat bilantarjima qilingan: Kuşlar kuşlar sıra sıra

Kuşlar geriye dönün.

Kabi va boshqa ko’plab she’rlarini misol keltirish mumkin.

Rauf Parfiga xos jihatlardan yana biri uning she’rlarida hayotiylik bor,hayotni boricha tabiatni jonli tasvirlashi haqiqatgo’yligidan darak bersa, guzal tashbehtarla ifodalashi uning mahoratidan dalolat beradi.Buning yaqqol misoli “Tong ” she’ridir:

Tong otmoqda,tong o’qlar otar,

Tong otmoqda,quyosh zambarak.

Yaralangan yer shari yotar,

Boshlarida yashil chambarak.

Quyidagi to'rtlikdagi jumlalarni o'zidayoq ijodkorni xalqqa yaqin ko'ngilchang insonligini ,uni soddadil insonlarni sevishini,dildagi gaplarini tushunishini his etish mumkin. Ana shunday kamtarinlik ila insonlar qalbidan munosib o'rinn egallagan desak xato bo'lmaydi:

Tong otmoqda musaffo tongga

Yuragini tutar odamlar

Shu tong uchun kelgan jahonga

Va shu tong deb o'tar odamlar.

Rauf Parfi e'tirof tanilmagan va shuhrat qozongan, hayotning baland-pastini ko'rgan, ammo hukumat tomonidan siylanmagan shoir. Chinakam she'riyat va so'z shinavandalarining chuqur e'tirofiga sazovor bo'lgan. O'zbek she'riyatiga yangilik oqimini olib kirgan haqiqiy rassomni tan olmaslik - bu mangu, doimiy mavzudir: yaratuvchi-rassom va hukumat. Bayron ("Manfred"), Nozim Hikmat ("Inson ko'rinishi"), Karl Kaladze ("Dengiz bo'yidagi o'ylar"), Enver Selyamet ("Oltin bolta") kabilarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bizning asrimizning daho shoiri Abdulla Oripov bundan oldin va bundan keyin ham hech bir tengdosh shoirga bunday otashin ta'rif bergen emas. Yana bir daho Erkin Vohidovning Rauf Parfi ijodiga munosabati bundan kam emasdi. Zamonamizning hassos shoirlari – Omon Matjon, Halima Xudoiberdiyeva, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyidlar uni bir umr ustoz bildilar. Rauf Parfini tan olmaslik mumkin emasdi. Dunyoning barcha qit'alarida – Osiyo va Yevropada, Amerika va Afrikada son-sanoqsiz muxlislari va izdoshlari bor edi. Bir necha xalqaro mukofotlar, shu jumladan, Turkiy xalqlar adabiy mukofotlarining sovrindori edi. 1999 yil O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Abdulla Oripovning tashabbusi va sa'y-harakati bilan Rauf Parfiga O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi... Keyin...keyinchalalik adabiyot charxpalagi orqasiga aylanib ketdi va nihoyat har qanday zulmatning ham ortidan munavvar tong otgani kabi, so'nggi 4-5 yildan buyon yurtimizdaadolat quyoshi baralla charaqlay boshlad!

Rauf Parfi chinakam mardlik va matonat yo'lini bosib o'tdi. 1943 yil 27 sentyabrda Yangiyo'ldagi Sho'ralisoyda asli vodillik bo'lgan Parfi Muhammad Amin o'g'li va Sakina Isabek qizi oilasida Tursunali Parpiyev shahodatnomasi bilan ko'z ochgan bo'lsa, 1960 yillar boshida shoir Rauf Parfi bo'lib "qayta"dan tug'ildi...

O'sha yillarda yoshlар orasida g'oyatda mashhur bo'lgan "Mash'al" radiokanalining bosh muharriri Rustam Rahmon (joylari jannatdan bo'lsin!) ToshDU jurnalistika fakulteti talabalari paxta terayotgan Bo'ka tumaniga tashrif buyurib, "Talabalar – gulxan atrofida" degan radio reportaj tayyorladilar. Unda talabalarning paxta dalasidan hordig'i aks etgan bo'lsa-da, radioreportaj davomida yangragan bir qo'shiq tez orada millat yoshlарining sevimli qo'shig'iga aylandi. Bu mana qariyb 60 yildan buyon tildan tushmay kelayotgan "Laylo" edi! Qo'shiq ijrochisi jurnalistika fakultetining 2-kurs talabasi Dadaxon Hasanov, qo'shiq muallifi esa, bizning kursdoshimiz, 3-kurs talabasi Rauf Parfi.

Shoirning hayot yo‘li, barcha talantli insonlar kabi, oson kechmadi! Biroq biror bir joyda u zorlanmadi, shikoyat nima, bilmadi. Shoir qalaysiz, degan savolga uning miyig‘ida kulgan holdagi javobi bitta bo‘ldi: “Zo‘r！”, deb qo‘yardi bosh barmog‘ini yuqoriga ko‘tarib.

U nochor kulbalarda yashaganda ham bu javobni kanda qilmadi, xalq shoiri unvonini olganda ham o‘zidan ketmadi, taltayish – unga begona edi! Nazarimda, Navoiy hazratlaridan keyin biron bir shoirga bunchalar ko‘p she’r va qasida bag‘ishlangan emas. “Nuroniy” papkasida Rauf Parfiga bag‘ishlangan yuzlab she’rlar mavjudki, bu hali hammasi emas. Bundan 4 oy muqaddam “Nuroniy”da Rauf Parfi haqida kaminaning “Buyuk farzand” maqolasi va shoirning bir sahifa she’rlari bosilgan, shundan so‘ng xatlar va unga bag‘ishlangan she’rlar yog‘ilib ketdi. Bugun biz ushbu sonda “Shogirdlar guldastasi” ostida ulardan bir nechasini e’lon qilar ekanmiz, sahifadan joy olmagan mualliflarimizdan uzr suraymiz va Rauf Parfi haqidagi “Xotira kitobi”da biz ularni albatta, e’lon qilamiz. Afsuski, shoir o‘z xalqi va muxlislar bag‘riga qaytishi hamma yuraklarda ham bir xilda aks-sado bermaganligi sir emas. Nachora, “qora yurak”lar uchun hali-hanuz dunyo miqyosida uzil-kesil malham dorisi topilgancha yo‘q.